



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-DEMOGRAFIK JARAYONLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Salayev Fazliddin Shamsiddin o‘g‘li
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, assistent

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizdagi ijtimoiy-demografik jarayonlarning rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyotida ushbu sohalarning tutgan o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilgan islohotlar va yangiliklar, bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda aholining ijtimoiy qatlamini himoya qilish uchun olib borilayotgan amaliy ishlar haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Mamlakatimiz aholisining o‘sib borishi natijasida jamiyatimizda yuzaga keladigan ijobiy va salbiy ta’sirlar ham muhokama qilingan. Shuningdek, jamiyat taraqqiyoti masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: demografik o‘shish, urbanizatsiya, ijtimoiy adolat, milliy portal, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, inson kapitali, ijtimoiy guruh, milliy birlik.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СОЦИОДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Салаев Фазлиддин Шамсиддин угли
Ташкентский архитектурно-строительный университет, ассистент

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие социально-демографических процессов в нашей стране, а также роль и значение этих областей в развитии общества. Обсуждаются реформы и нововведения, реализованные в социальной сфере Узбекистана в годы независимости, а также практическая работа, проводимая сегодня по защите социального слоя населения в Новом Узбекистане. Рассматриваются также позитивные и негативные последствия роста населения страны для нашего общества. Обсуждается также вопрос социального развития. Аннотация: В данной статье рассматривается развитие социально-демографических процессов в нашей стране, а также роль и значение этих областей в развитии общества. Обсуждаются реформы и нововведения, реализованные в социальной сфере Узбекистана в годы независимости, а также практическая работа, проводимая сегодня по защите социального слоя населения в Новом Узбекистане. Рассматриваются также позитивные и негативные последствия роста населения страны для нашего общества. Особое внимание уделяется также вопросу социального развития.

Ключевые слова: демографический рост, урбанизация, социальная справедливость, национальный портал, межэтническая гармония, межрелигиозная терпимость, человеческий капитал, социальная группа, национальное единство.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SOCIO-DEMOGRAPHIC PROCESSES IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY IN UZBEKISTAN

Salayev Fazliddin Shamsiddin ugli
Tashkent University of Architecture and Construction, Assistant

Abstract

This article discusses the development of socio-demographic processes in our country and the role and importance of these areas in the development of society. The reforms and innovations implemented in the social sphere in Uzbekistan during the years of independence, as

well as the practical work being carried out today to protect the social stratum of the population in New Uzbekistan, are also discussed. The positive and negative effects arising in our society as a result of the growth of our country's population are also discussed. The issue of social development is also discussed. Abstract: This article discusses the development of socio-demographic processes in our country and the role and importance of these areas in the development of society. The reforms and innovations implemented in the social sphere in Uzbekistan during the years of independence, as well as the practical work being carried out today to protect the social stratum of the population in New Uzbekistan, are also discussed. The positive and negative effects arising in our society as a result of the growth of our country's population are also discussed. Special attention is also paid to the issue of social development.

Keywords: demographic growth, urbanization, social justice, national portal, interethnic harmony, interreligious tolerance, human capital, social group, national unity.

Jamiyat taraqqiyoti har bir makon va zamonda muhim hisoblanib kelgan. Shuning uchun jamiyatlarda doimo o'zgarishlar va yangilanishlar bo'lib turgan. Ayniqsa, ijtimoiy-demografik jarayonlar jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan, chunki jamiyat aholi bilan mavjuddir. Har bir davlatda aholi sonining o'sishi aholining ijtimoiy ahvoliga ta'sir ko'rsatadi. Agar aholining demografik o'sishi bilan ijtimoiy sohalarini rivojlantirish baravar olib borilmasa, o'sha hududda ijtimoiy muammolar yig'ilib qoladi va bu o'ta salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin. Bu jarayon, ayniqsa, ko'p millatli aholiga ega davlatlarda ancha murakkabroq kechishi mumkin.

O'zbekistonda ham istiqloq yillarida aholi soni sezilarli darajada o'sdi va o'sishda davom etmoqda. Davlatimiz hukumati va hurmatli yurtboshimiz ushbu masalaga yetarlicha e'tibor qaratmoqdalar. Ko'p millatli xalqimiz tinch va farovon hayot kechirishi, jamiyat hayotida kamchiliklar bo'lmasligi uchun Yangi O'zbekistonda samarali ishlar amalga oshirilmoqda. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va "O'zbekiston – 2030" strategiyalarida jamiyat hayotini tubdan isloh qilish, aholi turmush darajasini yaxshilash kabi bir qancha islohotlar belgilab berilgan va amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro maydonlarda ham dunyo aholisining ijtimoiy holati haqida, geosiyosiy keskinlik yuqori hududlardagi nafaqat jamiyat, balki butun dunyo madaniy va ma'naviy merosi nobud bo'layotganligini o'z qarashlari bilan aytib kelmoqdalar. Chunki jamiyatning madaniy va ma'naviy merosi jamiyatning boyligi, ma'naviy asosining poydevori bo'ladi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Samarqandda bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochilish marosimidagi: "Geosiyosiy keskinlik va harbiy mojarolar ta'sirida sayyoramizdagi noyob yodgorliklar, muqaddas qadamjolar va bebaho madaniy meros katta ziyon ko'rmoqda. Davlatlar o'rtasida bilim va texnologiyalar, raqamli resurslardan foydalanish bo'yicha tafovut ortib bormoqda. Buning natijasida imkoniyatlar tengsizligi va qashshoqlik kuchaymoqda" [1] degan fikrlari bugungi dunyo manzarasiga naqadar mos tushishi ahamiyatlidir.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi global taraqqiyot sharoitida O'zbekistondagi jamiyat taraqqiyoti, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy jarayonlarning o'rni, demografik o'sishning jamiyatdagi ahamiyati, O'zbekistonda jamiyat taraqqiyoti rivojiga qaratilayotgan e'tibor kabi masalalarni O'zbekistonda M.Q. Qoraxonov, I.R. Mullajonov, E.A. Axmedov, O.B. Otamirzayev, R.A. Ubaydullayeva, X. Salimov, Q.X. Abduraxmonov, R.X. Aminova, D.A. Alimova, D.B. Bobojonova kabi olimlar tadqiq etganlar.

O'zbekistonda ijtimoiy-demografik jarayonlar mustaqillikka erishganimizdan keyingi davrda yangi pog'onaga ko'tarildi. Mamlakatimiz aholisi sonining barqaror o'sishi, aholi tarkibidagi yoshlar ulushining yuqoriligi va urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangani sir emas. Jamiyatimizning

ijtimoiy-demografik holatini tadqiq etish uchun davlatimiz hukumati bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatimizning ijtimoiy-demografik holati O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hisobotlarida muntazam yoritib borilmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabhalarida demografiyaning ahamiyatini oshirish va mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti negizidagi "Demografiya" milliy portali [2] faoliyat olib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda ijtimoiy-demografik jarayonlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot ustida ishlash jarayonida ijtimoiy-demografik jarayonlarni tahlil qilishda ilmiy-tanqidiy tahlil, qiyosiylik, tizimlilik, ilmiylik hamda izchillik uslublaridan foydalanildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish orqali demografik o'sish, urbanizatsiya va aholi tarkibidagi o'zgarishlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda nazariy manbalar asosida xulosalar chiqarildi.

Natijalar va ularning tahlili. Davlatimizda o'tkazilayotgan islohotlar natijasida jamiyatimizning ijtimoiy ahvoli tubdan yaxshilanib, aholining turmush darajasi rivojlanib bormoqda. Har bir davlatda aholi sonining o'sib borishi ushbu mamlakatdagi ijtimoiy sohani ham rivojlantirishni talab etadi. Chunki aholi soniga qarab ijtimoiy soha rivojlantirib borilmasa, jamiyatda ijtimoiy-demografik holat buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa aholining davlat va jamiyatga bo'lgan ishonchi pasayishiga olib keladi. Biz bunga o'xshash vaziyatni sobiq Ittifoq davrida XX asr 80-yillari ikkinchi yarmida boshimizdan o'tkazganmiz. Shunday ekan, bu bizga achchiq tajriba vazifasini o'tagan, desak xato bo'lmaydi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ijtimoiy-demografik jarayonlar miqdor va sifat jihatdan keskin o'zgardi. Mamlakatimiz aholisi 1991-yilda 20,6 million kishi bo'lgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 38,2 million kishini tashkil etdi. Mustaqillik yillarida aholi soni respublikamizda 85 foizga ko'paydi [3].

O'zbekistonda aholining yosh tarkibi va umr ko'rish davomiyligi ancha yaxshilandi. Bugungi kunda O'zbekiston – yoshlar mamlakatidir. 2025-yil holatiga ko'ra mamlakatimiz aholisining o'rtacha yoshi 29,3 yoshni tashkil etadi. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi ham 1991-yildagi 66,4 yoshdan 2024-yilda 75,1 yoshga o'sgan [4]. Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimidagi erishilgan yutuqlar va islohotlar hamda aholi turmush darajasining yaxshilanishi umr ko'rish davomiyligi o'sishining asosiy sabablaridir. Ushbu erishilayotgan ijobiy natijalar davlatimizda to'g'ri olib borilayotgan islohotlar mevasidir.

Ijtimoiy-demografik jarayonlar har doim jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutib kelgan. Shu o'rinda jamiyat taraqqiyoti haqida to'xtalib o'tsak, jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy jarayondir. Jamiyat hayoti iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalarga ajraladi. Iqtisodiy soha moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishni o'z ichiga oladi. Unda mamlakatning xo'jalik hayoti tashkil etiladi, uning turli tarmoqlarining o'zaro bog'liqligi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlik amalga oshiriladi. Bu jamiyat taraqqiyoti uchun eng asosiy sohadir. Ijtimoiy soha jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, toifalar hamda milliy birliklar, ularning ijtimoiy hayoti va faoliyatini uyg'unlashtiradi [5]. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyoti bilan ijtimoiy-demografik jarayonlar uzviy bog'liqdir.

O'zbekistonda aholi sonining tez sur'atlar bilan ko'payishi jamiyat taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aholining mehnatga layoqatli qismining ko'payishi natijasida ulkan ishchi kuchi resursi paydo bo'lishi sababli iqtisodiy o'sishga erishish, iste'mol tovarlari va xizmatlarga talabning oshishi orqali kichik va mahalliy tadbirkorlik hamda ishlab chiqarishning rivojlanishi, inson kapitalining yangilanishi orqali jamiyatning innovatsion taraqqiyotining ta'minlanishi kabilar ijobiy ta'sir deb hisoblansa, bandlik muammosi, ijtimoiy infratuzilmaga bosim hamda ekologik va resurslarga bosim, urbanizatsiya va uy-joy bilan ta'minlanishdagi muammolar salbiy ta'sir bo'lishi mumkin. Mustaqillikning ilk davrida davlatimizda chuqur ijtimoiy islohotlar amalga oshirilgan. Demografik o'tish davrining u yoki bu fazasi rivojlanishi

mamlakatlar, mintaqalardagi milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat bilan bog'liqlikda ro'y beradi. Sog'liqni saqlash va oziq-ovqat sifatiga e'tiborning kuchayishi aholi o'limi hodisasini kamaytiradi, ammo tug'ilishning qisqarmasligi, o'lim bilan tug'ilish darajasidagi farqni uzaytiradi, oqibatda aholi soni o'sishining tezlashishi kuzatiladi [6; 17-b.].

Xalqlarning soni haqidagi ma'lumotlar ularning etnik tarixini o'rganishda ham kerak. Ko'p sonli etnos yoki xalqning taraqqiyoti kichik etnik jamoanikidan albatta farqlanadi. Kichik etnik guruhning keyingi taqdirini aniqlashda aynan tarixiy demografiyaga oid materiallarni tahlil qilish muhim o'rin tutadi [7; 50-b.]. O'zbekiston aholisi ko'p millatli mamlakatlar qatoriga kiradi. Bugungi vaqtda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari ahillikda istiqomat qilib kelmoqda, ularning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. O'zbekiston kabi ko'p millatli mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi [8; 143-b.]. Shunday ekan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ham millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik masalalariga alohida to'xtalib o'tilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 74-maqсадida jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash masalasi keltirilgani fikrimizning isbotidir. Mazkur maqsadda keltirilgan masalalar va o'zgarishlar mamlakatimizdagi totuvlik va bag'rikenglikning jamiyat hayotidagi muhim qism ekanini ko'rsatadi.

Hozir O'zbekistonda jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni istiqol mafkurasi asosida tarbiyalash, o'zbek xalqining boy madaniy va ma'naviy merosi, qadriyatlari, an'analari va urf-odatlarini egallashlari uchun shart-sharoit yaratishdir. O'zbekistonda fuqarolik, huquqiy, demokratik va dunyoviy jamiyat barpo etilmoqda [9].

O'zbekiston salkam 40 million aholiga ega, turli millat va elat vakillari totuvlikda hayot kechirayotgan ulkan mamlakatdir. Mamlakatimizda har doim ijtimoiy-demografik soha dolzarb bo'lgan. Mustaqilligimizning ilk davridayoq jamiyatimizning ijtimoiy hayotini tubdan yaxshilash borasida amaliy ishlar qilingan. Xususan, 1993-yilda e'lon qilingan "O'zbek modeli"ning beshta tamoyilidan biri jamiyatda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish hamda aholining muhtoj qatlamini ijtimoiy himoyalash deb belgilanganligi davlatimizning aholining turmush darajasi va sharoitiga befarq emasligini isbotlagan edi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda jamiyat taraqqiyoti, aholi turmush darajasini yaxshilash, aholining yordamga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy himoyani kuchaytirish bo'yicha katta amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat taraqqiyoti bu faqat texnik rivojlanish emas, balki inson hayotining barcha jabhalarini yaxshilashga qaratilgan kompleks jarayondir. O'zbekistonda aholi o'sishi bu boylikdir. Biroq bu boylik jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi uchun "miqdoriy o'sish"ni "sifat o'sishi"ga, ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy malakaga aylantirish zarur. Aks holda, demografik o'sish ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqaruvchi omilga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasi ochilish marosimidagi nutq. – 30.10.2025.
2. Demografiya portali. – URL: <https://demografiya.uz/uz/maqsad-va-vazifalarimiz>
3. UzDaily. – URL: <https://www.uzdaily.uz>
4. Gazeta.uz. – URL: <https://www.gazeta.uz>
5. "Jamiyat" // *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.
6. Tojiyeva Z. N. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari: DSc diss. – T., 2017. – B. 17.
7. Казьмина О. Е., Пучков П. И. Основы этнодемографии. – М.: Наука, 1994. – С. 50.
8. MurtaZayeva R. H. O'zbekistonning eng yangi tarixi: darslik. – T., 2021. – B. 143.